

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA BANKLAR: TURLARI VA STRATEGIK VAZIFALARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi

Rasulov Dilshodbek Shuxratbek o'g'li

dilshodbekrasulov191@gmail.com

Annotatsiya: Moliya tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan banklar zamonaviy iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada banklarning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni, ularning asosiy turlari hamda strategik vazifalari yoritib berilgan. Tadqiqot jarayonida bank tizimining tarkibi, Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari, shuningdek ixtisoslashgan va islomiy banklarning moliya bozoridagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlikni saqlash va moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi strategik vazifalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatining transformatsiyasi, fintech texnologiyalarining ta'siri hamda banklar oldida turgan asosiy muammo va xatarlar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, bank tizimi, zamonaviy iqtisodiyot, tijorat banklari, ixtisoslashgan banklar, islomiy banklar.

Kirish: Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida banklar moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi banklar oldiga yangi strategik vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois bank tizimini modernizatsiya qilish, banklar faoliyatining samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish, banklar faoliyatini bozor mexanizmlariga moslashtirish va zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida¹¹ bank tizimini transformatsiya qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, bank tizimini isloh qilishga qaratilgan Prezident farmon va qarorlarida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda banklar faoliyatida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2017 yildagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida¹² ham o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu hujjatlar banklarning nafaqat moliyaviy vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik drayveri sifatidagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida banklarning turlari, ularning asosiy va strategik vazifalari hamda bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktik, mantiqiy, monitoring, ekspress-baholash va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi. O'rganilgan adabiyotlar natijasida mavzu to'liq yoritib berildi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan islohotlar ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili

Klassik va zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda banklar iqtisodiyotdagi asosiy vositachi sifatida talqin etilgan. Ular jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va pul-kredit barqarorligini ta'minlovchi muhim institut sifatida qaraladi. J. Keynsning ishlarida banklarning kreditlash mexanizmi va pul siyosati iqtisodiy rivojlanishning markaziy omili sifatida ko'rsatildi, J. Shumpeter esa banklarni innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi va yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi institutsional vosita sifatida baholagan¹³. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar bank tizimining institutsional rivoji, moliyaviy barqarorlikni saqlashdagi roli, shuningdek raqamli transformatsiya va fintech texnologiyalarining bank faoliyatiga ta'siri bo'yicha keng tahlillarni taklif

¹¹ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"](https://president.uz/oz/lists/view/4954), <https://president.uz/oz/lists/view/4954>

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", <https://lex.uz/ru/docs/-3342348>

¹³ Keynes, J. "The General Theory of Employment, Interest and Money", London, 1936.

qiladi¹⁴. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy banklar nafaqat oddiy kredit va depozit xizmatlarini taqdim etuvchi vositachi, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik rivojlantiruvchi omilga aylanmoqda.

Shuningdek, banklar turlicha vazifalarni bajaradi va ularning har biri iqtisodiyotdagi o'ziga xos funksional rolga ega:

-Markaziy bank

Markaziy bank davlat moliya siyosatini amalga oshiruvchi asosiy moliyaviy institutdir. U pul-kredit barqarorligini ta'minlaydi, inflyatsiya va deflyatsiyani nazorat qiladi, milliy valyutani boshqaradi va tijorat banklarining faoliyatini tartibga soladi. Markaziy bankning eng asosiy vazifalaridan biri — asosiy stavka (rep'yukredit stavkasi) orqali tijorat banklari kreditlash foizlarini nazorat qilish va moliyaviy bozorda barqarorlikni saqlashdir¹⁵. Bu mexanizm tijorat banklarini iqtisodiy sharoitga moslashishga undaydi va pul-kredit siyosatining samaradorligini oshiradi.

-Tijorat banklari

Tijorat banklari aholiga va korxonalarga kreditlar ajratadi, depozitlarni jalb qiladi, hisob-kitob va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi. Ularning faoliyati iqtisodiyotning kundalik ishlashi va biznes jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklarining kredit stavkalari so'mda 12–18%, xorijiy valyutada 5–8% oralig'ida o'zgaradi, depozitlar bo'yicha foiz stavkalari esa 5–12% gacha yetadi¹⁶. Bu stavkalar banklar va mijozlar o'rtasidagi moliyaviy muvozanatni ta'minlaydi va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

-Ixtisoslashgan banklar

Bu turga investitsion banklar, rivojlanish banklari va ipoteka banklari kiradi. Ular maxsus loyihalarni moliyalashtiradi, jumladan, sanoat, qurilish, infrastruktura va boshqa strategik yo'nalishlardagi investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, ipoteka banklari fuqarolarga uy-joy kreditlarini berib, uy-joy sohasini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ixtisoslashgan banklarda ipoteka kreditlari uchun yillik foiz stavkasi 10–14% oralig'ida¹⁷. Bu turdagi banklar iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

-Islomiy banklar

Islomiy banklar foizsiz moliyalashtirish prinsiplari asosida faoliyat yuritadi va Shariat tamoyillariga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi. Ular “musharaka” va “murabaha” kabi shartnomalar orqali daromad oladi, ya'ni foiz

¹⁴ IMF, World Bank Reports, “Financial Sector Development in Emerging Economies”, 2021.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: cbu.uz

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi: lex.uz

¹⁷ Kun.uz, “Ipoteka kreditlari stavkalari va shartlari”, kun.uz

o'rniga hamkorlik asosida foyda taqsimlanadi¹⁸. Bu banklar odatda raqamli va rivojlanayotgan bozorlar uchun muqobil moliyaviy mexanizm sifatida faoliyat yuritadi, shuningdek, moliyaviy inklyuziyani oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir bank turi o'ziga xos vazifalarni bajaradi va iqtisodiyotdagi strategik roli bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlari, fintech platformalar va onlayn kreditlash tizimlarining joriy etilishi bank faoliyatini samarali va tezkor qilmoqda, iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi vositaga aylantirmoqda.

Asosiy qism

Markaziy bank

Markaziy bank O'zbekistonning moliya tizimidagi asosiy institut bo'lib, davlat pul-kredit siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi. Uning asosiy vazifalari inflyatsiya darajasini nazorat qilish, pul massasini tartibga solish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, tijorat banklari o'rtasida to'lov tizimi va hisob-kitoblarni boshqarish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va bank tizimining moliyaviy barqarorligini saqlashdan iborat. 2025-yil sentabr holatiga Markaziy bank orqali tartibga solinadigan tijorat banklari aktivlari jami 863,1 trillion so'mni tashkil etib, kredit portfeli 581,1 trillion so'm, depozitlar esa 363,7 trillion so'mga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlar Markaziy bankning samarali tartibga soluvchi rolini va mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta'kidlaydi. Global miqyosda ham Markaziy banklar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi: 2024-yilda dunyo bank aktivlarining qariyb 191 trillion dollari Markaziy banklar va ular tartibga soladigan bank tizimi orqali boshqarildi.

O'zbekiston tijorat banklari esa jismoniy va yuridik shaxslarga kundalik moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi, pul mablag'larini jamlab, iqtisodiyotga yo'naltiradi. Ularning vazifalari orasida depozitlarni qabul qilish, kredit berish, to'lov-hisob operatsiyalarini amalga oshirish, valyuta operatsiyalari va investitsiya xizmatlarini taqdim etish kiradi. 2025-yil 1-mart holatida tijorat banklari aktivlari jami 780,2 trillion so'mga yetib, kredit portfeli 540 trillion so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar tijorat banklarining iqtisodiyotdagi resurs taqsimlashdagi muhim rolini ochib beradi. Shu bilan birga, global miqyosda eng yirik tijorat banklari milliardlab dollar miqdoridagi aktivlarni boshqarib, iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantiradi.

Investitsiya va ixtisoslashgan banklar esa iqtisodiyotning maxsus yo'nalishlariga moliyaviy resurslarni yo'naltiradi. Investitsiya banklari korxonalarga kapital bozorida xizmat ko'rsatadi, aksiyalar va obligatsiyalar chiqarishda yordam beradi; rivojlanish banklari strategik davlat loyihalarini

¹⁸ Islamic Banking Uzbekistan, rasmiy sayti: islamicbanking.uz

moliyalashtiradi; ipoteka banklari fuqarolarga uy-joy sotib olish uchun kreditlar beradi. O'zbekiston sharoitida ixtisoslashgan banklar orqali berilgan ipoteka va investitsiya kreditlari mamlakat uy-joy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, jahonda investitsiya banklari yirik korporativ va davlat loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Shu tarzda, Markaziy bank, tijorat banklari va investitsiya/ixtisoslashgan banklar O'zbekiston moliya tizimining asosiy ustunlari bo'lib, ular resurslarni samarali taqsimlash, to'lov tizimini boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro statistika esa bank tizimining global iqtisodiyotdagi ahamiyatini tasdiqlab, ularning moliyaviy faoliyati va aktivlar hajmi orqali iqtisodiy jarayonlarda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Tijorat banklari

Tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslarga keng ko'lamli moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi, jamg'armalarni yig'ib, iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltiradi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: depozitlarni qabul qilish orqali aholi va korxonalardan mablag' jalb qilish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va iste'molga kredit ajratish, naqd pul va elektron to'lovlar, bank kartalari hamda onlayn bank xizmatlari orqali to'lov-hisob operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek, valyuta operatsiyalari va investitsiya xizmatlarini taqdim etish, jumladan valyuta ayirboshlash va kapital bozorida maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

O'zbekiston sharoitida tijorat banklari iqtisodiyotdagi resurs taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. 2025-yil 1-mart holatiga tijorat banklari aktivlari jami 780,2 trillion so'm, kredit portfeli esa 540 trillion so'mga yetgan. Bu ko'rsatkichlar banklarning mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilgan mablag'lar hajmini va ularning faoliyatining samaradorligini ochib beradi.

Global kontekstda esa eng yirik tijorat banklari, masalan, Xitoydagi Industrial and Commercial Bank of China, milliardlab dollar miqdoridagi aktivlarni boshqaradi va jahon moliya tizimida muhim rol o'ynaydi. Bu esa tijorat banklarining nafaqat milliy, balki global iqtisodiyotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Investitsiya va ixtisoslashgan banklar

Investitsiya va ixtisoslashgan banklar iqtisodiyotning maxsus yo'nalishlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: investitsiya banklari korxonalarga kapital bozorida xizmat ko'rsatadi, aksiyalar va obligatsiyalar chiqarishda yordam beradi; rivojlanish banklari strategik davlat loyihalarini moliyalashtiradi; ipoteka banklari esa fuqarolarga uy-joy sotib olish uchun

kreditlar taqdim etadi.

O'zbekiston sharoitida ixtisoslashgan banklar orqali berilgan ipoteka va investitsiya kreditlari mamlakat uy-joy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim omil bo'lib, ular iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Global kontekstda investitsiya banklari jahon bozorida yirik korporativ va davlat loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi, shu bilan birga moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va risklarni boshqarishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Islom banklari

Islom banklari moliyaviy faoliyatni Shariat qoidolari asosida yurituvchi institutlar bo'lib, ular foizli kreditlashni (riba) taqiqlashga qat'iy amal qiladi. Ularning asosiy vazifalari foizsiz moliyalashtirish, iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishdan iborat. Foizsiz moliyalashtirish mexanizmi "musharaka" (hamkorlik) yoki "murabaha" (savdo asosida moliyalashtirish) shartnomalari orqali amalga oshiriladi, ya'ni daromad foiz o'rniga bitim natijasiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, Islom banklari kichik biznes, ishlab chiqarish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi va Shariat prinsiplari asosida faoliyat yuritib, bankni ortiqcha risklardan himoya qiladi. Ular ijtimoiy mas'uliyatni ham hisobga olib, jamiyat manfaati, adolat va tenglikni rag'batlantiradi.

O'zbekiston sharoitida Islomiy moliyaviy xizmatlar sohasida bir nechta bank faoliyat yuritadi. 2025-yilda Islom banklari orqali berilgan foizsiz kreditlar hajmi o'sib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, ipoteka, savdo va ishlab chiqarish loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Global kontekstda Islom banklari eng rivojlangan mamlakatlar — Saudiya Arabistoni, BAA, Malayziya va Turkiyada faoliyat yuritadi. Ularning aktivlari 2024-yilda taxminan 2,5 trillion dollarga yetib, xalqaro moliyaviy tizimda foizsiz moliyalashtirish mexanizmi sifatida o'z o'rnini mustahkamladi.

Shu tarzda, Islom banklari nafaqat foizsiz moliyaviy xizmatlarni tatbiq etuvchi institut, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni rag'batlantirish va kichik hamda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda strategik rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston bank tizimi Markaziy bank, tijorat banklari, investitsiya va ixtisoslashgan banklar hamda Islom banklaridan iborat bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Markaziy bank monetar siyosatni boshqarish, to'lov tizimi va banklararo operatsiyalarni tartibga solish hamda valyuta rezervlarini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Tijorat banklari kreditlar ajratish, depozitlarni jalb qilish va moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali ishlab chiqarish va iste'molga yo'naltirilgan mablag'larni samarali taqsimlaydi. Investitsiya va ixtisoslashgan banklar strategik loyihalarni moliyalashtirishda muhim omil bo'lib, uy-joy va infratuzilma loyihalariga resurs yo'naltiradi. Islom banklari esa foizsiz moliyalashtirish orqali kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy adolatni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Bank tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish

Tijorat va ixtisoslashgan banklarda onlayn bank xizmatlari va mobil ilovalarni rivojlantirish zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu mijozlar uchun qulaylik yaratadi, masalan, naqd pul operatsiyalarini kamaytirish, bank xizmatlaridan uy yoki ish joyidan turib foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, fintech yechimlarini joriy etish banklarning operatsion xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, tranzaksiyalar tezligi va xavfsizligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy xizmatlarning qamrovini kengaytirish mumkin, xususan qishloq hududlarida yashovchi aholiga va kichik biznes sub'yektlariga xizmat ko'rsatish imkoniyati oshadi.

Kreditlash tizimini diversifikatsiya qilish

O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun banklar kreditlashni turli sohalar bo'yicha diversifikatsiya qilishi zarur. Jumladan, kichik va o'rta biznes, qishloq xo'jaligi, innovatsion texnologiyalar va startap loyihalari uchun maxsus kredit paketlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Islom banklari orqali foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, ya'ni "musharaka" va "murabaha" shartnomalari asosida kredit berish, biznesni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, balki banklarning mijozlar bazasini kengaytirishiga ham yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlikni oshirish

Bank tizimining barqarorligi iqtisodiyotning umumiy moliyaviy salomatligi uchun muhimdir. Shu sababli, banklararo hamkorlikni kuchaytirish, bir-birining tajribasidan foydalanish va risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Masalan, kredit riskini baholash, kapitalni yetarli darajada saqlash va sug'urta mexanizmlarini tatbiq etish bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan tartibga soluvchi siyosat va moliyaviy nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi ham iqtisodiy xatarlarni kamaytirish va

banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", <https://president.uz/oz/lists/view/4954>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", <https://lex.uz/ru/docs/-3342348>
3. Keynes, J. *"The General Theory of Employment, Interest and Money"*, London, 1936
4. IMF, World Bank Reports, "Financial Sector Development in Emerging Economies", 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: cbu.uz
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi: lex.uz
7. Kun.uz, "Ipoteka kreditlari stavkalari va shartlari", kun.uz
8. Islamic Banking Uzbekistan, rasmiy sayti: islamicbanking.uz